

**XIZMAT KO'RSATISH SHARTNOMASI
(LOYIHA-SMETA HUJJATLARI TAYYORLASH BO'YICHA)**

764 /22-LS – sonli

Samarqand sh.

25 Avgust 2022 yil

Bizlar "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi (Keyingi o'rnlarda «Buyurtmachi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi direktor o'rnbosari K.Ximmakulov bir tomondan va **YO'L LOYIHA TARAQQIYOT MCHJ** (Keyingi o'rnlarda «Bajaruvchi» deb yuritiladi) nomidan ish yurituvchi D. Axmedov ikkinchi tomondan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK xarid komissiyasining 23.08.2022 yildagi 35723-sonli bayonnomasi asosida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning topshirig'i bo'yicha quyidagi loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish majburiyatini oladi: Oqdaryo tumani A.Temur MFY Chila ota qabristoniga borish yo'ni joriy ta'mirlash bo'yicha loyixa smeta xujjatlarini ishlab chiqish belgilangan norma va qiodalariga amal qilingan holda.

1.2. «Buyurtmachi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun topshiriq berish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarni berish, bajarilgan ishlarni qabul qilib olish va ushbu shartnomaning 2 va 3 bandlarida belgilangan tartibda va miqdorda haqini to'lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Ishlarni amalga oshirishning shartnoma bahosi QQS bilan 8 800 571 (sakkiz million sakkiz yuz ming besh yuz yetmish bir) so'mni tashkil qiladi.

3. TO'LOV TARTIBI

3.1. Ushbu shartnoma bo'yicha to'lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi: «Buyurtmachi» shartnoma G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab 10 (o'n) bank kuni ichida shartnoma bahosining 15 (o'n besh) foizi miqdorida avans to'lovnini amalga oshiradi.

3.2. To'lov shakli: Shartnoma bilan belgilangan to'lovlar pul ko'chirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3.3. Har bir bosqichda (yoki 1-ilovada ko'rsatilgan ko'chalar) bajarilgan ishlarni joriy moliyalashtirish «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan dalolatnomalar asosida ajaratilgan avans mablag'i miqdori belgilangan foiz doirasida ushlab qolinib amalga oshiriladi.

3.4. «Buyurtmachi» ishlarni topshirish-qabul qilish oraliq dalolatnomalari imzolanganidan so'ng, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish muddatini hisobga olingan holda, manzilli dastur tasdiqlanib va moliyalashtirish ochilgandan so'ng 30 (o'tiz) bank kuni mobaynida «Bajaruvchi»ga haq to'lashni o'z zimmasiga oladi.

3.5. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni uchun moliyalashtiruvchi organlar tomonidan mablag' moliyalashtirilmagan taqdirda «Buyurtmachi» to'lovnini amalga oshira olmaydi va to'lov kechiktirilishi uchun javobgar bo'lmaydi.

3.6. Ishlar qiymati uzil-kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko'rib chiqilishi mumkin emas, quyidagi hollar bundan mustasno:

- ishlarni qiymatini ko'paytirishga yengib bo'lmaydigan kuch (fors-major) xolatlari sabab bo'lganda;
- ishlarni xajmi Buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganda;

4. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

4.1. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni uchun, shu jumladan, keyinchalik qurilish jarayonida, shumindek tayyorlangan loyiha-smeta hujjatlar ma'lumotlari asosida barpo etilgan ob'ektidan foydalanan jarayonida aniqlangan kamchiliklarni uchun javobgardir.

4.2. «Bajaruvchi» ishlarni dastlabki ma'lumotlar va kelishilgan grafik asosida bajarishni, «Buyurtmachi» bilan bajariladigan ishlarning (bosqichlarning) natijalarini kelishishni o'z zimmasiga oladi.

4.3. «Buyurtmachi» ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ga taqdim qiladi.

4.4. «Buyurtmachi» shartnomada ko'zda tutilgan shartlar va tartiblar asosida to'lovnini amalga oshirish, ishlarning shartnomada ko'rsatilgan hajin va shartfaga muvofiq bajarilishni «Bajaruvchi»ga yordam ko'rsatish, bajarilgan ishlardan shartnomada ko'zda tutilgan maqsadlarda foydalanan, «Bajaruvchi»ning roziligidiz shartnoma bo'yicha bajarilgan ishlarni uchinchi shaxsiga bermaslik va undagi ma'lumotlarni tarqatmaslikni o'z zimmasiga oladi.

4.5. «Buyurtmachi» tomonidan avans to'lovlarini o'z vaqtida o'tkazilmagan holda yoki ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan birlamchi ma'lumotlar va materiallarni «Bajaruvchi»ning talabiga asosan taqdim etmaganida ishlarni boshlash va tugallash muddati ham avans to'lovi va ma'lumotlar berilishi kechiktirilgan vaqtga qadar uzaytiriladi.

4.6. Ushbu shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» o'z majburiyatlarni sifatsiz bajarsa, kelishilgan qo'shimcha muddatda, talab qilingan sifat darajasida o'z hisobidan qaytdan bajaradi.

4.7. «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini «Buyurtmachi»ga topshirgandan so'ng, qurilish ishlarni boshlangan davrdan boshlab qurilish tugallangunga qadar mualliflik nazoratini tashkil etish va mualliflik daftarchani belgilangan normalar asosida olib borish majburiyati yuklatiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Loyerha-smeta hujjatlarida kamchiliklarni aniqlangan taqdirda, «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning talabi bilan loyiha-smeta hujjatlarini bepul qayta ishlarni chiqishi va buning natijasida keltirilgan zararni to'lashi shart.

5.2. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini tuzish jarayonida belgilangan ShNK va QMQ rivoja qilgan holda bajarishni va keyinchalik loyiha-smeta hujjatlaridan kelib chiqqan kamchiliklarni yoki «Bajaruvchi» xatosi bilan ko'zga tutilmagan qo'shimcha ishlarni va xarajatlar uchun javobgarligini o'z zimmasiga oladi. Kelib chiqqan qo'shimcha xarajatlar «Bajaruvchi» tomonidan to'lanadi.

5.3. «Bajaruvchi» o'z hohishi bilan yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan «Buyurtmachi»ning roziligidiz loyiha-smeta hujjatlariga o'zgartirishlar kiritilsa, barcha ko'paygan to'lovlarini o'z hisobidan to'lashi va kelib chiqqan muammolar uchun amaldagi qonunchilikka asosan o'zi javobgar bo'лади.

5.4. «Bajaruvchi» loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish davomida texnik shartlar, arxitektura rejalashtirish to'plami (APZ), geologik xulosasi va ekspertiza uchun to'lovlarini amalga oshiradi.

5.5. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonun xujjatlariga muvofiq belgilanadi.

6. ISHLARNI TOPSHIRISH VA QABUL QILISH TARTIBI VA MUDDATLARI

6.1. Mazkur loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish shartnoma tomonlar imzolanganidan so'ng G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlanadi. Shartnoma ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqqilib, ushbu hujjatlar va ekspertiza xulosasining asl nusxasi «Buyurtmachi»ga taqdim qilinishi lozim.

6.2. «Bajaruvchi» ushbu shartnomaning 1.1 va 6.1-bandlarida nazarda tutilgan loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish ishlarni «Buyurtmachi» bergan topshiriqda belgilangan muddatiarda bajaradi.

6.3. Ishlar tugagandan so'ng «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» ishlarni topshirish va qabul qilish dalolatnomasi bilan topshiradi.

6.4. «Buyurtmachi» ishlarni qabul qilmasligining asosli rad javobini bergan taqdirda, amalga oshirilishi zarur bo'lgan qo'shimcha ishlarning ro'yxati va ularning bajarilish muddatlarini ko'rsatgan holda ikki tomonlama dalolatnomasi tuziladi.

6.5. Agar ishlarni bajarish jarayonida uni davom ettirish maqsadga muvofiq emasligi aniqlansa, tomonlar 5 kun muddat ichida uni to'xtatish to'g'risida birinchi xabar qilishi va 15 kun ichida ishlarni davom ettirish maqsadga muvofiq yoki muvofiq emasligi to'g'risidagi masalan ko'rib chiqishi shart. Ishlarning to'xtatilishi tomonlar uchun O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida ko'zda tutilgan oqibatlar va javobgarlikka olib keladi.

6.6. Agarda shartnoma G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan boshlab 20 kun ichida «Bajaruvchi» tomonidan ushbu shartnomaning 6.1-bandida ishlarni bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (bes) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomanini bir tomonlama bekor qilish ko'rsatilgan ishlarni bajarilmagan taqdirda, «Buyurtmachi» kamida 5 (bes) kun oldin «Bajaruvchi»ni habardor qilgan holda shartnomanini bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega.

6.7. Tomonlardan biri mazkur shartnoma ko'zda tutilgan ishlarni to'xtatish to'g'risida yozma xabar bergan vaqt o'zarob hisob-kitob qilish vaqt hisoblanadi.

6.8. Lozim topilgan hollarda tomonlar xolis ekspertlarga Loyiha bo'yicha xulosasi uchun murojaat qilishi yoki qabul komissiyasi tashkil qilishi mumkin.

7. KONFIDENSIAL MA'LUMOTLARNI HIMoyalash

7.1. Ishlar bajarilishi davrida «Bajaruvchi» konfidensial hisoblanadigan ma'lumotlar ishlab chiqqan yoki ularni «Buyurtmachi»dan olgan hollarda ularni himoyalash, oshkor bo'lishini oldini olish maqsadida tegishli tadbir va choralar ko'radi.

8. YENGIB BO'L MAYDIGAN KUCH (FORS-MAJOR) HOLATLARI

8.1. Agar ushu shartnoma bo'yicha majburiyatlar qisman yoki to'liq bajarilmasligi tabiat hodisalarini va boshqa yengib bo'l maydigan tabiiy falokatlar uchun qisman yoki to'liq bajarilishiga bevosita ta'sir etsa, tomonlar bunday qisman yoki to'liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Mazkur shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar amal qilgan, shuningdek ushu holatlar ro'y beragan va qonungda qilib qilingan.

8.2. Agar yengib bo'l maydigan tabiiy kuchlar yoki ularning oqibatlari bir oydan ko'p vaqtga cho'zilsa, u holda «Buyurtmachi» va «Bajaruvchi» ishlashni davom ettirish yoki ularni to'xtatish uchun qanday choralar ko'rinishini muhokama qildilar.

8.3. Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u holda tomonlarning har biri shartnoma bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

9. KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SHARTLARI

9.1. Tomonlar amaldagi korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilish va ushu shartnoma bo'yicha o'z huquq majburiyatlar bilan bog'liq holda korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qonun hujjatlarni buzadigan har qanday harakatlarni amalga oshirmsalik, shu jumladan noqonuniy to'lovlari taklif qilmaslik, bunday to'lovlarga ruxsat bermaslik, va'da qilmaslik, shuningdek har qanday jismoni yoki yuridik shaxslarga, shu jumladan (lekin ular bilan cheklanmagan holda) tijorat tashkilotlariga, davlat va o'zini o'zi boshqarish organlariga, davlat xizmatchilariga, xususiy kompaniyalarga va ularning vakillariga naqd pul yoki boshqa shaklda (lekin cheklanmagan holda) pora bermaslik va pora talab qilmaslik hamda qonunga xilof boshqa xatti-harakatlar sodir etmasini majburiyatini oladilar.

9.2. Tomonlardan biri ushu bandda ko'rsatilgan majburiyatlarini buzgan taqdirda, boshqa tomon bir tomonloma va sudgacha bo'lgan tartibda ushu shartnomaning bajarishini rad etishga haqli. Ushbu bandga muvofiq shartnoma bekor qilingan taqdirda tomonlar bir-birlariga kompensatsiya to'lamaydilar.

10. QO'SHIMCHA SHARTLAR

10.1. «Bajaruvchi» loyihani muddatidan oldin bajargan holda «Buyurtmachi» uni mazkur shartnomaning 6-bo'limga asosan qabul qiladi. Shartnomaning 3-bo'limga belgilangan tartibda to'lovnini amalga oshiradi.

10.2. O'zaro muloqat yo'li bilan hal qilinmagan muammolar qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

10.3. Shartnomanaga tomonlar roziligi asosida, yozma ravishda o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

10.4. «Bajaruvchi» mazkur shartnomanada ko'rsatilgan ishlarni bajarish vaqtida o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, «Buyurtmachi»ni xabardor qilma holda uchinchiligi shaxslarni, jumladan yuridik va jismoni shaxslarni mustaqil ravishda jaib qilish huquqiga ega.

10.5. Mazkur shartnomaning shartlari shartnoma predmeti bo'yicha taraflarning shartnoma tuzishidan oldin vujudga kelgan munosabatlarga «Bajaruvchi»ning ob'ekt bo'yicha bajargan ishlariha nisbatan qo'llaniladi.

10.6. Mazkur shartnoma amal qilish davomida yuzaga keladigan tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar tomonlar tarafidan o'zaro muzokara yo'li bilan (besh) kunlik muddatda hal etiladi.

Belgilangan muddatda kelishuvga kelinmagan taqdirda tortishuvlar, kelishmovchiliklar, nizolar Samarqand shaxar iktisodiy sudida da'vo ariza kiritish yo'li bilan ko'chiladi.

10.7. «Buyurtmachi» tomonidan dastlabki to'lov va ishlarni topshirganda shartlashilgan to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun 0,4 foizi miqdorida per to'lanadi, bunda penyaning umumiy summasi shartnoma narxining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim. Investorni aybi bilan moliyalashtirish kechikkan hollar buning mustasno.

10.8. «Bajaruvchi» tomonidan bajarilgan ishlarni yoki ko'rsatilgan xizmatlar muddati kechiktirilganda «Buyurtmachi»ga muddati o'tkazib yuborilgan bir kun uchun bajarilmagan ishlarni qiyomatining 0,4 foizi miqdorida penya to'lanadi, biroq bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlarni qiyomatining 50 (ellik) foizidan oshmasligi lozim.

10.9. Mazkur shartnoma bilan nazarda tutilmagan taraflarning javobgarligi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, xususan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksiga, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy – huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonun muvofiq belgilanadi.

10.10. To'langan penya yoki jarimalar tomonlarni ushu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

10.11. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagandan va g'aznachilik bo'limidan ro'yxatdan o'tganidan so'ng xukukiy kuchga kiradi.

10.12. Mazkur shartnomaning amal qilish muddatti 2022 yil 31-dekabrgacha.

10.13. Ushbu shartnoma o'zbek tilida ikki nusxada tuzildi va bir xil yuridik kuchga ega.

TOMONLARNING MANZILI VA HISOB RAQAMLARI

"BUYURTMACHI"

Nomi: "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK

Manzili: Samarqand sh. A.Nabiyev ko'chasi 3-uy

Bank: Samarqand sh. AKIB "Ipoteka bank"

L/s: 304521860184017045990118987

STIR: 207254149

MFO: 00312

OKED: 70220

Direktor o'rindosari: _____ K. Nigmatkulov



"BAJARUVCHI"

Nomi: "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MCHJ

Manzili: Toshkent sh. Olmazor tumani Beruniy 2-uy 15-xona

Bank nomi: "Ipoteka-bank" Olmazor filiali

X/R: 2020 8000 8051 2411 5001

MFO: 009091 MASHRIK BANK

STIR: 306 714 954

OKNA: 96 120

Direktor o'rindosari: _____ D. Axmedov



Mazkur shartnoma 29.08.1998 yildagi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunning 21-moddasiga asosan huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Shartnoma matni amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilingan holda tuzilgan. Ushbu huquqiy ekspertiza shartnomadagi narxlarining shakllantirilishiga nisbatan tadbiq etilmaydi.

Yurist: G. Sardorov

Yurist: _____

Moliya vazirligi g'aznachiligi X/R 234020003000100001010
Bank nomi: Markaziy Bank XKKM Toshkent shaxar boshqarmasi

Manzili: Samarqand shaxari Kuksaroy maydoni №1

STIR (INN): 201122919 MFO 00014 OKED: 97160

Tel 2335853, 231-11-52

(Ro'yxatga olindi. Amelbek)

BAYONI

Samarqand shahri
Raislik qiluvchi

K.Ximmatkulov

«25» 08 2022 y.

Ishtirok etgan komissiya a'zolari:

Sultanmuradov Elyor
Erkinovich

Komissiya raisi o'rinosbosari Bosh muhandis

Maxmudov Sherzod
Ulug'bekovich

Komissiya a'zosi Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i,

Bekmirzayev Azim
Xasanovich

Komissiya a'zosi Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i,

Abdurayimov Sobir Mamarajabovich
Narmatov Xurshid Umrbayevich

Komissiya a'zosi, Ishlab chiqarish texnik bo'lim boshlig'i,
Komissiya kotibi, Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i.

1. Komissiya a'zolari egallab turgan lavozimidan boshqa ishga o'tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan xodim kiritiladi.

KUN TARTIBI:

Kun tartibidagi masala yuzasidan "Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK direktori S.Mamatkulov so'zga chiqib Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan Samarqand viloyatdagi ichki avtomobil yo'llarini joriy ta'mirlash bo'yicha 2022 yil uchun manzilli ro'yxatiga asosan quiydagi

- | | |
|--|--|
| 1. Samarqand shahar Mendeleev ko'chasi
3. Samarqand shahar Ziyorlar mfy Al-Xorazmiy ko'chasi
5. Samarqand shahar Xo'jagunjoyish MFY Bogirohat 2-ko'chasi
7. Samarqand shahar Kushxavuz MFY Kushxavuz ichki ko'chasi
9. Samarqand shahar Imom Vose MFY Imom Vose ko'chasi
11. Samarqand tuman Diyor MFY Bog'ibaland ko'chasi
13. Bulung'ur tuman Yangi obod MFY A.Navoiko ko'chasi va
15. Samarqand tuman Yangi joy MFY ichki ko'chasi
17. Samarqand tuman Bo'zi MFY Botanika bog'iga borish ko'chasi | 2. Samarqand shahar Ilmobod MFY 6-proyezd ko'chasi
4. Samarqand shahar Panjob MFY Almedov 1-ko'chasi
6. Samarqand shahar Bunyodkor MFY gulobod 5-ko'chasi
8. Samarqand shahar Qoziariq MFY ichki ko'chalari
10. Kattaqo'rg'on tuman Yakkabog MFY Bogidilkusho ko'chasi
12. Samarqand tuman Safedi MFY Firot ko'chasi
14. Oqdaryo tuman A.Temur MFY Chilla ota qabristoniga borish yo'lli
16. Samarqand tuman Kovchinon MFY ichki ko'chasi
18. Samarqand shahar Charmgari MFY Amur ko'chalarini |
|--|--|
- loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun

(Sultanmuradov E, Sh.Maxmudov, S.Abduraimov, A. Bekmirzayev,)

"Samarqand mintaqaviy yo'llarga buyurtmachi xizmati" DUK tomonidan 2022 yil 13 avgust O'zbekiston Respublikasi Tovar xa xom-ashyo birjasining elektron portaliga to'g'risida bo'yicha e'lon joylashtirildi.

Mazkur lot bo'yicha 2022 yil 23 Avgustdag'i eng yaxshi takliflami tanlash savdosini o'tkazish bo'yicha davlat xaridlari komissiyasining elektron portalni orqali shakillangan bayonnomasiga asosan e'lon yakuniga ko'ra Komissiya a'zolari tomonidan "**YO'L LOYIHA TARAQQIYOT**" MChJ g'olib deb topilganini inobatga olib.

YIG'ILISH QAROR QILADI:

1.O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22 apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuning 62-moddasi 3-bandiga asosan yuqorida nomi ko'rsatilgan obyeklar bo'yicha komissiya bayonnomasi davlat xaridlari elektron tizimiga muxokama qilish uchun ikki ish kuniga joylashtirildi. Ikki ish kuni davomida davlat xaridlari elektron tizimiga joylashtirilgan bayonnomasi bo'yicha xech qanday e'tirozlar yoki qo'shimcha takliflar kelib tushmaganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'imi boshlig'i. X.Narmatov, yuqoridagilardan kelib chiqib hamda komissiya a'zolarining 2022 yil 23 avgustdag'i elektron bayonnomalariga asosan "**YO'L LOYIHA TARAQQIYOT**" MChJ bilan qonunchilikda o'matilgan tartibda shartnomalar tuzish vazifasi yuklatilsin.

3. Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i A.Bekmirzayev, tanlov g'olib "YO'L LOYIHA TARAQQIYOT" MChJ tomonidan loyiha-smeta hujjatlarini SHNQ va QMQu mos ravishda ishlab chiqishni nazorat qilish zavifasi yuklatilsin.

Komissiya a'zolari

F.I.SH	Imzo	Lavozimi
Sultanmurodov Elyor Erkinovich		Korxona bosh muhandisi
Maxmudov Sherzod Ulug'bekovich		Moliya iqtisodiyot bo'limi boshlig'i
Bekmirzayev Azim Xasanovich		Loyiha ta'minoti bo'limi boshlig'i
Abduraimov Sobir Mamarajabovich		Ishlab chiqarish texnik bo'limi boshlig'i
Narmatov Xurshid Umrbayevich		Tenderlarni tashkil etish va shartnomalar bo'limi boshlig'i